Zamonaviy iqtisodiy tizimda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy holatini belgilovchi muhim omillardan biriga aylandi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda dunyo bo'yicha kattalar orasida bank hisobiga ega bo'lganlar ulushi 76 foizga yetgan bo'lsa-da, hanuzgacha 1,4 milliard kishi moliyaviy xizmatlardan chetda qolmoqda [1]. Bu holat, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda keskin namoyon bo'lib, moliyaviy chiqarib tashlash ko'pincha mavjud ijtimoiy tengsizliklarni yanada chuqurlashtiradi.

Moliyaviy inklyuziya – bu jismoniy va yuridik shaxslarning o'z ehtiyojlariga mos keladigan, mas'uliyatli va barqaror tarzda taqdim etiladigan arzon moliyaviy mahsulot va xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini anglatadi [2]. Ushbu konsepsiya nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki ijtimoiy adolat masalalari bilan ham chambarchas bog'liq. Darhaqiqat, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati shaxsning kapital to'plash, tavakkalchilikni boshqarish va iqtisodiy faoliyatda to'liq ishtirok etish qobiliyatini belgilaydi.



Ijtimoiy tabaqalanish jamiyatning turli qatlamlarga bo'linishi jarayoni bo'lib, u asosan iqtisodiy resurslar, ijtimoiy maqom va hokimiyatga kirish imkoniyatlaridagi farqlarga asoslanadi [3]. Xususan, M. Weber va P. Bourdieu asarlarida ijtimoiy stratifikatsiyaning ko'p o'lchovli xususiyati ta'kidlanib, iqtisodiy kapitalning ijtimoiy pozitsiyani shakllantirish jarayonidagi roli chuqur tahlil qilinadi [4]. Shu nuqtai nazardan, moliyaviy inklyuziyani ijtimoiy tabaqalanishga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida o'rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotning maqsadi moliyaviy inklyuziya va ijtimoiy tabaqalanish o'rtasidagi bog'liqlikning nazariy asoslarini aniqlash hamda ushbu munosabatlarning zamonaviy iqtisodiy tabaqalashuvda namoyon bo'lish xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat. Shunga ko'ra, ijtimoiy tabaqalanishning klassik va zamonaviy nazariyalarini ko'rib chiqish, moliyaviy inklyuziyaning ijtimoiy mobillikka ta'sir mexanizmlarini aniqlash hamda rivojlanayotgan mamlakatlardagi empirik dalillarni tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijtimoiy tabaqalanish nazariyasi sotsiologiya fanining markaziy konsepsiyalaridan biri hisoblanadi. Max Weber (1867-1920) ijtimoiy tabaqalanishning uch o'lchovli modelini taklif qilgan bo'lib, unga ko'ra jamiyatdagi shaxsning pozitsiyasi sinf (iqtisodiy holat), maqom (ijtimoiy obro') va partiya (siyosiy hokimiyat) orqali belgilanadi [5]. Weber nazariyasiga ko'ra, sinf – bu bozor sharoitida o'xshash hayotiy imkoniyatlarga ega bo'lgan shaxslar guruhi bo'lib, moliyaviy resurslarga kirish ushbu imkoniyatlarni bevosita shakllantiradi.

Pierre Bourdieu (1930-2002) ijtimoiy tabaqalanish nazariyasini yanada rivojlantirib, kapitalning turli shakllarini ajratib ko'rsatdi: iqtisodiy kapital (moddiy boylik va moliyaviy resurslar), ijtimoiy kapital (ijtimoiy aloqalar va tarmoqlar), madaniy kapital (ta'lim, ko'nikmalar va madaniy kompetensiya) hamda ramziy kapital (ijtimoiy tan olinishi) [6]. Bourdieu ta'kidlashicha, ushbu kapital turlarining kombinatsiyasi shaxsning ijtimoiy maydondagi pozitsiyasini belgilaydi va ularning o'zaro konvertatsiyasi ijtimoiy mobillik uchun muhim ahamiyatga ega [7].

Bourdieuining kapital nazariyasi moliyaviy inklyuziya kontekstida alohida ahamiyat kasb etadi. Uning yondashuviga ko'ra, iqtisodiy kapital – bu faqat pul mablag'lari emas, balki ulardan samarali foydalanish imkoniyatidir [8]. Moliyaviy xizmatlardan foydalana olmaydigan shaxslar iqtisodiy kapitaldan chetda qoladi, bu esa ularning boshqa kapital turlarini to'plash imkoniyatlarini ham cheklaydi. Masalan, kredit olish imkoniyatining mavjud emasligi ta'limga investitsiya kiritishni (madaniy kapital) qiyinlashtiradi, bu esa o'z navbatida daromad olish imkoniyatlarining pasayishiga olib keladi.

Moliyaviy inklyuziya nazariyasi nisbatan yangi ilmiy yo'nalish bo'lib, u iqtisodiy nazariya, rivojlanish iqtisodiyoti va sotsiologiya elementlarini o'z ichiga oladi. P.K. Ozili moliyaviy inklyuziyaning o'n ikki nazariyasini tizimlashtirgan bo'lib, ularga jamoat manfaati nazariyasi, norozilik nazariyasi, zaif guruhlar nazariyasi, tizimlar nazariyasi, jamoa eshelonlari nazariyasi, davlat xizmati nazariyasi, maxsus agent nazariyasi, hamkorlikdagi aralashuv nazariyasi, moliyaviy savodxonlik nazariyasi, xususiy pul nazariyasi, davlat puli nazariyasi hamda aralashuv fondi nazariyasi kiradi [9].

Tizimlar nazariyasi nuqtai nazaridan moliyaviy inklyuziya mavjud iqtisodiy va ijtimoiy quyi tizimlar bilan o'zaro bog'liq jarayon sifatida qaraladi [10]. Ushbu yondashuvga ko'ra, moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati ta'limga investitsiya qilish, sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish kabi boshqa sohalaridagi imkoniyatlarni ham kengaytiradi. Zaif guruhlar nazariyasi esa moliyaviy inklyuziyaning eng katta ta'siri aynan ijtimoiy jihatdan himoyasiz qatlamlar – ayollar, qishloq aholisi va past daromadli oilalar orasida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [11].

Moliyaviy inklyuziya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab tadqiqotlarda tasdiqlangan. McKinsey Global Institute hisobotiga ko'ra, raqamli moliyaviy xizmatlarni kengaytirish rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotni 6 foizgacha oshirishi hamda 95 million yangi ish o'rnini yaratishi mumkin [12]. Ushbu natijalar moliyaviy inklyuziyaning nafaqat mikro (shaxs va oila), balki makro (jamiyat va iqtisodiyot) darajadagi ijobiy ta'sirini yaqqol namoyon etadi.

Moliyaviy inklyuziya va kambag'allikni kamaytirish o'rtasidagi bog'liqlik empirik tadqiqotlarda ham keng o'rganilgan. Omar va Inabalaning 116 ta rivojlanayotgan mamlakatni qamrab olgan panel ma'lumotlar tahlili moliyaviy inklyuziya kambag'allik darajasi va daromadlar tengsizligini sezilarli darajada kamaytirishini ko'rsatdi [13]. Saha va Qin esa 156 ta mamlakat misolida moliyaviy inklyuziyaning ekstremal kambag'allikka ta'siri rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori daromadli mamlakatlarga nisbatan kuchliroq ekanini aniqlagan [14].

Ouechtati tomonidan 53 ta rivojlanayotgan mamlakatda o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tijorat banklarida kredit va depozit hisoblariga kirish imkoniyatining kengayishi kambag'allik darajasining sezilarli kamayishiga olib keladi [15]. Ushbu topilmalar moliyaviy xizmatlarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tizimli adabiyotlar sharhi (Systematic Literature Review – SLR) metodologiyasi qo'llanildi. Mazkur yondashuv mavjud ilmiy bilimlarni tizimli ravishda jamlash va chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqot jarayoni quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oldi.

Birinchidan, manbalarni tanlash amalga oshirildi. Scopus, Web of Science, Google Scholar va JSTOR ma'lumotlar bazalaridan 2004-2024-yillar oralig'ida chop etilgan ilmiy maqolalar tanlab olindi. Qidiruv kalit so'zlari sifatida "financial inclusion", "social stratification", "poverty reduction", "income inequality", "digital financial services" iboralarini qo'llanildi. Dastlabki qidiruv natijasida 620 dan ortiq manba aniqlanib, ulardan 85 tasi mavzuga mosligi va ilmiy sifat mezonlari asosida batafsil tahlil uchun tanlab olindi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi. Turli mamlakatlar va mintaqalardagi moliyaviy inklyuziya ko'rsatkichlari hamda ijtimoiy tabaqalanish tendensiyalari o'zaro solishtirildi. Ushbu tahlilda asosan Jahon bankining Global Findex ma'lumotlar bazasi, XVF statistikasi hamda mintaqaviy tadqiqotlar natijalaridan foydalanildi [16].

Uchinchidan, konseptual modellashtirish amalga oshirildi. Klassik sotsiologik nazariyalar (Weber, Bourdieu) hamda zamonaviy moliyaviy inklyuziya yondashuvlari sintezi asosida moliyaviy inklyuziyaning ijtimoiy tabaqalanishga ta'sir etish mexanizmlarini ifodalovchi model ishlab chiqildi. Mazkur model iqtisodiy kapitalga kirish imkoniyati, ijtimoiy mobillik va stratifikatsiya o'rtasidagi sababiy bog'liqliklarni aks ettiradi.

Tadqiqotning cheklavlari sifatida quyidagilarni qayd etish lozim: birinchidan, tahlil asosan ingliz tilidagi manbalarga tayangan; ikkinchidan, empirik ma'lumotlar asosan panel va kross-seksional tadqiqotlar natijalariga asoslangan; uchinchidan, mamlakatlar kontekstidagi institutsional va madaniy farqlar to'liq hisobga olinmagan bo'lishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon bankining Global Findex 2021-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi o'n yillikda moliyaviy inklyuziya sohasida sezilarli yutuqlarga erishilgan. Xususan, 2011-yilda dunyo bo'yicha kattalar aholisining 51 foizi moliyaviy hisobga ega bo'lgan bo'lsa, 2021-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 76 foizga yetdi [17]. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa hisob egaligi darajasi 2011-yildagi 42 foizdan 2021-yilda 71 foizgacha oshdi.

Mazkur o'sish asosan raqamli moliyaviy xizmatlar, mobil pul o'tkazmalari hamda elektron to'lov tizimlarining keng joriy etilishi bilan izohlanadi.

Quyidagi jadvalda moliyaviy inklyuziyaning mintaqalar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval. Moliyaviy inklyuziya ko'rsatkichlari mintaqalar kesimida, 2021-yil (foizda)¹

Mintaqa	Hisob raqam egaligi	Raqamli to'lovlar	Gender farqi
Yuqori daromadli mamlakatlar	97	89	2
Yevropa va Markaziy Osiyo	78	65	4
Lotin Amerikasi va Karib hav.	73	57	5
Sharqiy Osiyo va Tinch okeani	83	68	4
Janubiy Osiyo	68	35	12
Sahroi Kabirdagi Afrika	55	34	12
Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika	48	33	17

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mintaqalar o'rtasida moliyaviy inklyuziya darajasida sezilarli farqlar mavjud. Ayniqsa, gender tafovuti Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika (17 foiz), shuningdek Janubiy Osiyo hamda Sahroi Kabirdan janubdagi Afrika (12 foiz) mintaqalarida yuqori hisoblanadi. Ushbu farqlar ijtimoiy tabaqalanishning gender jihatlarini yaqqol namoyon etib, ayollarning iqtisodiy imkoniyatlari cheklanganligini ko'rsatadi.


Bourdieu kapital nazariyasi kontekstida qaralganda, moliyaviy inklyuziya ijtimoiy mobillikka bir nechta mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, u iqtisodiy kapitalga bevosita kirishni ta'minlaydi. Jamg'arma hisobiga ega bo'lish shaxsga boylik to'plash, kutilmagan xarajatlarni moliyalashtirish hamda iqtisodiy zarbalarga nisbatan barqarorlikni oshirish imkonini beradi [18]. Kredit olish imkoniyati esa tadbirkorlik faoliyatini boshlash yoki uni kengaytirish uchun zarur moliyaviy resurslarni jalb etishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, moliyaviy inklyuziya madaniy kapitalga investitsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kredit va jamg'arma xizmatlaridan foydalanish oilalarga farzandlarining ta'limini moliyalashtirish, kasb-hunar egallash va malakani oshirish imkonini beradi [19]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy xizmatlardan foydalanuvchi oilalarda bolalarning ta'lim natijalari nisbatan yuqori bo'ladi.

¹ Manba: World Bank Global Findex Database 2021 [17] asosida muallif tomonidan tuzildi



Uchinchidan, moliyaviy inklyuziya ijtimoiy kapitalning shakllanishiga ham hissa qo'shadi. Mikrokredit guruhlari, jamg'arma uyushmalari va boshqa moliyaviy tashkilotlar a'zolari o'rtasida ijtimoiy aloqalar va o'zaro yordam tarmoqlari yuzaga keladi [20]. Bu tarmoqlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy resurs sifatida ham xizmat qiladi.



1-rasm. Moliyaviy inklyuziyaning ijtimoiy tabaqalanishga ta'sir modeli²

1-rasmda ko'rsatilganidek, moliyaviy inklyuziya iqtisodiy kapitalga kirishni ta'minlash orqali kapitalning boshqa turlarini rivojlantirish uchun ham sharoit yaratadi. Bu, o'z navbatida, ijtimoiy mobillikni oshiradi va pirovardida ijtimoiy tabaqalanish darajasining pasayishiga olib keladi. Ushbu model Bourdieu tomonidan ilgari surilgan kapital konvertatsiyasi konsepsiyasiga asoslanadi hamda empirik tadqiqotlar natijalari bilan mos keladi.

Raqamli moliya xizmatlari (Digital Financial Services – DFS) moliyaviy inklyuziyaning zamonaviy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, raqamli moliya xizmatlari 13 ta Barqaror rivojlanish maqsadiga erishishda bevosita hissa qo'shadi [21]. Masalan, Keniyada M-Pesa mobil to'lov tizimi 2008-2014-yillar davomida taxminan 1 million kishini ekstremal kambag'allikdan chiqarishga yordam bergan [22]. Ugandaning shimoliy mintaqasida esa mobil pul hisoblaridan foydalanish qishloq xo'jaliklari orasida oziq-ovqat xavfsizligini 45 foizga oshirgan [23].

O'zbekiston misolida ham raqamli moliya xizmatlari jadal rivojlanmoqda. O'zbekiston Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilga kelib 9,5 million nafar aholi masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan [24]. HUMO va UzCard milliy to'lov tizimlari, shuningdek Click va Payme kabi to'lov ilovalari moliyaviy xizmatlarning geografik qamrovini sezilarli darajada kengaytirdi. Bu jarayon, ayniqsa, qishloq hududlari aholisi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, bank infratuzilmasining jismoniy cheklovlarini bartaraf etishga xizmat qilmoqda [25].

Moliyaviy inklyuziyaning ijtimoiy tabaqalanishga ta'siri gender aspektida alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda ayollar va erkaklar o'rtasidagi bank hisobiga egalik bo'yicha tafovut o'rtacha 6 foizni tashkil etadi [26]. Biroq ayrim mintaqalarda bu ko'rsatkich ancha yuqori bo'lib, Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikada 17 foizni, Janubiy Osiyoda esa 12 foizni tashkil etadi. Ushbu tafovutlar ayollarning iqtisodiy mustaqilligi va ijtimoiy mobilligini sezilarli darajada cheklaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollarning moliyaviy xizmatlardan foydalanishi nafaqat ularning o'zlari, balki butun oila farovonligi uchun ham ijobiy natijalar beradi. Ayollar daromadlarining katta qismini bolalarning ovqatlanishi, sog'lig'i va ta'limiga yo'naltiradi [27]. Shu bois, gender tengsizligini kamaytirish moliyaviy inklyuziya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

2 Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqildi

2-jadval. Moliyaviy inklyuziyaning ijtimoiy tabaqalanishga ta'sir mexanizmlari³

Mexanizm	Ta'sir yo'nalishi	Empirik dalillar
Jamg'arma imkoniyati	Boylik to'plash, iqtisodiy zarbalarga chidamlilik	Global Findex: hisobga ega bo'lganlar 40% ko'proq tejaydi
Kredit olish	Tadbirkorlik, ta'lim, uy-joyga investitsiya	Mikrokredit: 15-20% daromad oshishi (Banerjee va boshq.)
Sug'urta	Risk boshqaruvi, oila himoyasi	Sog'liq sug'urtasi: 25% tibbiy xarajatlar qoplanadi
Raqamli to'lovlar	Vaqt tejash, xavfsizlik, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish	M-Pesa: 1 mln kishini kambag'allikdan chiqardi
Xalqaro tranzaksiyalar	Xalqaro pul o'tkazmalari, oilaviy qo'llab-quvvatlash	Raqamli remitans: 5-7% arzonroq xarajatlar

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot moliyaviy inklyuziyaning ijtimoiy tabaqalanishga ta'sirini nazariy jihatdan tahlil qildi. Klassik sotsiologik nazariyalar hamda zamonaviy empirik tadqiqotlar sintezi asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, moliyaviy inklyuziya Bourdieu kapital nazariyasi nuqtai nazaridan iqtisodiy kapitalga kirishni ta'minlash orqali ijtimoiy mobillikni oshiradi. Jamg'arma, kredit, sug'urta va to'lov xizmatlaridan foydalanish imkoniyati shaxslarga boylik to'plash, tavakkalchilikni boshqarish hamda iqtisodiy faoliyatda to'liq ishtirok etish imkonini beradi. Bu esa kapitalning boshqa turlariga – madaniy (ta'lim), ijtimoiy (tarmoqlar) va ramziy (ijtimoiy maqom) kapitalga investitsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ikkinchidan, moliyaviy inklyuziya va kambag'allikni kamaytirish o'rtasida kuchli teskari bog'liqlik mavjud. Empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda kambag'allik darajasi pastroq bo'ladi. Ushbu bog'liqlik ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, raqamli moliya xizmatlari moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va ijtimoiy tabaqalanishni kamaytirishning samarali vositasi hisoblanadi. Mobil to'lovlar, onlayn banking va fintech yechimlari geografik hamda institutsional to'siqlarni bartaraf etib, ilgari moliyaviy xizmatlardan chetda qolgan aholi qatlamlariga kirish imkonini yaratadi.

To'rtinchidan, moliyaviy inklyuziyaning gender jihati alohida e'tiborni talab qiladi. Ayollarning moliyaviy xizmatlardan foydalanishi nafaqat ularning iqtisodiy mustaqilligini, balki butun oila farovonligini oshiradi. Shu sababli gender tengsizligini kamaytirish moliyaviy inklyuziya siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim.

Ushbu tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchidan, davlat siyosatida moliyaviy inklyuziyani ijtimoiy himoya va kambag'allikni kamaytirish dasturlarining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqish zarur. Ijtimoiy to'lovlarni raqamli hisoblar orqali amalga oshirish moliyaviy inklyuziyani kengaytirishning samarali mexanizmi hisoblanadi.

Ikkinchidan, raqamli moliya infratuzilmasini, ayniqsa qishloq hududlarida rivojlantirishni davom ettirish lozim. Mobil aloqa qamrovi, internet infratuzilmasi va raqamli savodxonlik dasturlari moliyaviy inklyuziyaning geografik qamrovini kengaytiradi.

Uchinchidan, ayollar va qishloq aholisi kabi zaif guruhlar uchun maqsadli moliyaviy mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish zarur. Ushbu xizmatlar ularning o'ziga xos ehtiyojlari va imkoniyatlarini hisobga olishi kerak.

To'rtinchidan, moliyaviy savodxonlik dasturlarini kengaytirish va ularni ta'lim tizimiga integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Moliyaviy xizmatlardan samarali foydalanish yetarli bilim va ko'nikmalarni talab etadi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda moliyaviy inklyuziyaning ijtimoiy tabaqalanishga ta'sirini alohida mamlakatlar kesimida chuqurroq o'rganish, uzoq muddatli kuzatuvlar va tahlillar o'tkazish hamda sababiy bog'liqliklarni aniqroq aniqlash uchun eksperimental yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

3 Manba: Turli tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzildi [13], [14], [17], [22].



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Demircuc-Kunt A., Klapper L., Singer D., & Ansar S. (2022). *The Global Findex Database 2021: Financial inclusion, digital payments, and resilience in the age of COVID-19*. World Bank. <https://www.worldbank.org/en/publication/globalindex>
2. World Bank. (2024). *Financial inclusion overview*. <https://www.worldbank.org/en/topic/financialinclusion/overview>
3. D'Souza V.S. (1981). *Inequality and its perpetuation: A theory of social stratification*. Manohar Publications.
4. Ahmad Malik F., & Yadav D. . (2022). Financial theories and their relevance in financial inclusion. In *Financial inclusion schemes in India*. Springer, Singapore. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-981-19-1316-7_2
5. Weber M. (1967). Class, status and party. In R. Bendix & S. M. Lipset (Eds.), *Class, status, and power: Social stratification in comparative perspective* (pp. 21-28). Routledge & Kegan Paul.
6. Bourdieu P. (1986). The forms of capital. In J. Richardson (Ed.), *Handbook of theory and research for the sociology of education* (pp. 241-258). Greenwood Press.
7. Institute for Social Capital. (2024). *Bourdieu on social capital – theory of capital*. <https://www.socialcapitalresearch.com/bourdieu-on-social-capital-theory-of-capital/>
8. Weininger E.B. (2005). Foundations of Pierre Bourdieu's class analysis. In E. O. Wright (Ed.), *Approaches to class analysis*. Cambridge University Press. <https://pages.nyu.edu/jackson/class.analysis/readings/Wright--ClassAnalysis--Ch4-Bourdieu.pdf>
9. Ozili P.K. (2020). *Theories of financial inclusion* (MPRA Paper No. 101810). https://www.researchgate.net/publication/338852717_Theories_of_Financial_Inclusion
10. Ozili P.K. (2024). *Systems theory of financial inclusion*. SSRN Electronic Journal. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4970221
11. Koomson I., Villano R.A., & Hadley, D. (2024). Financial inclusion and its ripple effects on socio-economic development: A comprehensive review. *Journal of Risk and Financial Management*, 17(3), 105. <https://www.mdpi.com/1911-8074/17/3/105>
12. McKinsey Global Institute. (2016). *Digital finance for all: Powering inclusive growth in emerging economies*. McKinsey & Company.
13. Omar M.A., & Inaba K. (2020). Does financial inclusion reduce poverty and income inequality in developing countries? A panel data analysis. *Journal of Economic Structures*, 9(1), 1-25. <https://journalofeconomicstructures.springeropen.com/articles/10.1186/s40008-020-00214-4>
14. Saha S.K., & Qin J. (2023). Financial inclusion and poverty alleviation: An empirical examination. *Economic Change and Restructuring*, 56, 409-440. <https://link.springer.com/article/10.1007/s10644-022-09428-x>
15. Ouechtati I. (2020). The contribution of financial inclusion in reducing poverty and income inequality in developing countries. *Asian Economic and Financial Review*, 10(9), 1051-1061. <https://archive.aessweb.com/index.php/5002/article/view/1999>
16. World Bank. (2022). *Global financial inclusion (Global Findex) database*. <https://microdata.worldbank.org/index.php/collections/global-findex>
17. World Bank. (2023). *Latest Global Findex data: Chart-10 years of progress in financial inclusion*. <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2023/02/02/latest-global-findex-data-chart-10-years-of-progress-in-financial-inclusion>
18. Wang X., & Guan J. (2020). A theory of financial inclusion and income inequality. *The European Journal of Finance*, 26(17), 1717-1737. <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/1351847X.2020.1792960>
19. Agyekum F., & Agyekum K. (2024). Can financial inclusion enhance human development? Evidence from low- and middle-income countries. *Humanities and Social Sciences Communications*, 11, 577. <https://www.nature.com/articles/s41599-024-03048-8>
20. International Labour Organization. (2025). *Gender and financial inclusion*. <https://www.ilo.org/resource/other/gender-and-financial-inclusion>
21. United Nations Secretary-General's Special Advocate (UNSGSA), Better Than Cash Alliance, UNCDF, CGAP, & World Bank. (2023). *Igniting SDG progress through digital financial inclusion*. United Nations. <https://sdgs.un.org/publications/igniting-sdg-progress-through-digital-financial-inclusion-30370>
22. Suri T., & Jack W. (2016). The long-run poverty and gender impacts of mobile money. *Science*, 354(6317), 1288-1292.
23. ReliefWeb. (2023). *Igniting SDG progress through digital financial inclusion-2023 edition*. <https://reliefweb.int/report/world/igniting-sdg-progress-through-digital-financial-inclusion-2023-edition>
24. Alliance for Financial Inclusion. (2021). *Financial inclusion on the agenda of the Central Bank of Uzbekistan*. <https://www.afi-global.org/newsroom/blogs/financial-inclusion-on-the-agenda-of-the-central-bank-of-uzbekistan/>
25. International Finance Corporation. (2021). *Enhancing financial capability and inclusion in Uzbekistan*. World Bank Group. <https://www.ifc.org/content/dam/ifc/doc/mgrt/financial-capability-and-inclusion-eng.pdf>
26. World Bank. (2022). *COVID-19 boosted the adoption of digital financial services*. <https://www.worldbank.org/en/news/feature/2022/07/21/covid-19-boostered-the-adoption-of-digital-financial-services>
27. CGAP. (2023). *Women and finance: Enabling women's economic empowerment*. <https://www.cgap.org/blog/women-and-finance-enabling-womens-economic-empowerment>
28. Adeoye S.E., & Khan F. (2023). Digital financial inclusion: A gateway to sustainable development. *Heliyon*, 9(7), e17554. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2405844022010544>
29. Nassiry D., & Wheeler D. (2023). Financial inclusion as an enabler of United Nations Sustainable Development Goals in the twenty-first century. In *Finance for sustainable development goals*. Springer. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-031-23863-5_1

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100